O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

Ro‘yxatga olindi: № БД 60230100 2024-yil “10” 15		**“TASDIQLAYMAN”** SamDU rektori: R.I.Xalmuradov 2024-yil “__” _____

MATN TAHLILI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish

Fan/modul kodi 4TF2506	O'quv yili 2026-2027	Semestr V	ECTS – Kreditlar 6	
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami (soat)
	Matn tahlili	76	104	180

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**Fanni o'qitishdan maqsad** – filolog bakalavrlarga badiiy asarni tahlil etish, matn zamiridagi joziba va estetik o'ziga xoslikni topish, uning tarbiyaviv qimmatini anglatish yo'llarini o'rgatishdan iborat. **Fanning maqsadi** – talabalarda badiiy tahlil to'g'risida tasavvur uyg'otish; badiiy matnni qabul qilishda tayaniladigan falsafiy asos hamda milliy mansublikning o'rnini aniqlash; tahlil jarayonida asarning tur xususiyatlarining ahamiyatini belgilash. Bundan tashqari mazkur o'quv predmetining nazariy asoslarini, badiiy asarni tahlil qilish va baholash mezonlarini, talabalarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirishning shakl va usullarini, dars jarayoniga qo'shimcha adabiyollarni, yangi axborot hamda turli texnologiyalarni qo'llay olish malakasini shakllantirishdan iborat.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**«Matn tahlili» fan sitatida** «Matn tahlili» fanini o'qitish orqali mustahkam nazariy bilim berish ko'zda tutiladi. «Matn tahlili» o'quv fanida badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari va asosiy qonuniyatlarini o'zlashtirish talabalar bilimiga qo'yilgan talabdir. Matn tahlili kursining ilmiy tadqiqot metodlari va taraqqiyot istiqbollari, badiiy matn tahlilning ijtimoiy ahamiyati haqida bilimga ega bo'lish; badiiy matn tahlilida falsafiy va milliy asosning o'rni; badiiy tahlil turlari, tahlil turlarining o'zaro

	aloqadorligini belgilay olishi; badiiy tahlil bosqichlari, badiiy tahlilning genetik, tipologik, funktsional, falsafiy, psixologik, filologik yo'nalishlari, ilmiy tahlil va o'quv tahliliga xos tamoyillarni bilishi; badiiy matn tahlilida shakl va mazmun, ob'ekt munosabatlarining yetakchi xususiyatlarini aniqlay olishi; badiiy matnni tekshirishdagi ilmiy maktablarni tavsiflay bilishi; badiiy tahlilda adabiy turga xos xususiyatlarni hisobga olish, lirik, epik, dramatik asarlarni tahlil qilish yo'llarini bilishi talab qilinadi.
M2	**Badiiy matnlar tahlilining yetakchi tamoyillari** Tekshirilayotgan badiiy matn yoxud asarning butun sehru jozibasi to'liq namoyon bo'lishi, unda aks etgan inson ruhiyati manzaralari to'la anglashilishi va izohlanishi uchun tahlilni amalga oshirishda bir qator tamoyillarga tayanilishi kerak. Tamoyil biror xatti-harakatning yuzaga kelishi uchun bajarilishi lozim bo'lgan shartlar tushunchasini anglatadi. Mukammal va tugal tahlilning bo'lishi mumkin emasligi badiiy asar tahlilini amalga oshirishda rioya qilinadigan birinchi tamoyildir. Badiiy tahlilda mantiqiy tushunchalar asosida ish ko'rilib, ilmiy xulosalar chiqarilsa-da, bunda aniq fanlardagi kabi bir xil natijaga kelinmasligi mumkin. San'at hodisasiga xos xususiyatlarni mantiq kategoriyalari va tafakkur tushunchalari qolipiga to'liq, tugal va beshikast ag'darish mumkin emas. Mantiqiy kategoriyalarga to'la tushadigan, barcha qirralari tugal izohlanadigan hodisa chin san'atga tegishli bo'lmaydi. San'at mantiqiy tushunchalarga sig'dirish mumkin bo'lmagan joydan boshlanadi. Binobarin, eng zo'r tadqiqotchi ham asl ijod namunasini o'zgacha talqinga o'rin qoldirmaydigan tarzda to'liq tahlil qilolmaydi. Chinakam badiiy matn uni idrok etgan shaxslarning saviyasi, didi, intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli davrlarda turlicha qabul etilaveradi. Hatto, ba'zan bir asarning o'zi bitta odam tomonidan kayfiyatining qandayligiga qarab har xil idrok etilishi mumkindir. Bundan tashqari har qanday tahlilning shaxsiy mulohaza ekani va u hech qachon mutlaq haqiqat bo'lmasligi, badiiy asarga borliqning nusxasi tarzida yondashish mumkin emasligi, yaxlitlik, tizimlilik, tarixiylik, estetik asoslarning ustuvorligi kabi tamoyilari mavjud bo'lib ular bilan mazkur mavzuni o'zlashtirish jarayonida to'liq atanishib

	chiqamiz.
M3	**Badiiy matn tahlil tamoyillarining tahlil amaliyotidagi o'rni** Xermenevtik amaliyotda badiiy matnlar tahlilining maqsadi nimaligi hamisha ham to'gri belgilab olinavermaganligi uchun estetik asoslarning ustuvorligi tamoyiliga ko'pincha amal qilinmaydi. Badiiy asar inson ruhiyati manzarasi bo'lgani bois oquvchilarni eng qabariq, eng ta'sirchan tuygular tasviri bilan yuzma-yuz qiladi. Shu tariqa kitobxonlar o'zga odamlarning ruhiyatiga oshno etiladilar. Ko'pincha odamlar o'z ruhiyatini anglay olmay yurgan bir paytda kitobxonlar o'zgalarning kechinmalarini his etishga odatlanishadi. Natijada, kishining tuyg'ulari o'tkirlashadi, fikri teranlashadi, kechinmalari noziklashadi. Tahlilda estetik asoslar ustuvor bo'lsagina, o'quvchilarning qalb ko'zi ochiladi va ular tuyg'usizlikdan, hissizlikdan qutuladilar. Badiiy asarni o'rganish asnosida yurakdagi bepavorlik illati solgan zanglardan tozalanish inson ma'naviyati uchun ulkan saodatdir.
M4	**Badiiy matn tahlilning yo'nalishlari** Badiiy tahlilda adabiy matnga qanday yondashilayotgani, uning qaysi jihatini tadqiq etish ko'zda tutilayotgani ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tahlil etilayotgan badiiy asarning qaysi jihatiga birlamchi e'tibor berilishi lozimligini belgilash tahlilning yo'nalishi tushunchasini anglatadi. Badiiy asar tahlilining to'laqonli bo'lishi tahlilchining matnni qanday yo'nalishda tekshirayotganiga bog'liqdir. Badiiy tahlil ilmida asar tahlili genetik, tipologik, funksional, falsafiy, psixologik va filologik singari olti yo'nalishda amalga oshirilishi qayd etiladi. Albatta, tahlil yo'nalishlarining bu xildagi tasnifi birmuncha shartlidir. Negaki, odatda badiiy tahlil jarayonida bu yo'nalishlardan birortasi ustuvor o'rin tutsa-da, deyarli hech qachon faqat bittasidan foydalanilib, boshqasi chetlab o'tilmaydi. Chunki o'rganilayotgan asar estetik tizim bo'lgani uchun uning tahliliga ham ajralmas qismlardan iborat butunlik tarzida yondashish, ya'ni, matnga har jihatdan qarash zaruriyati hamisha saqlanib qoladi.
M5	**Badiiy matnni tahlil qilish turlari** Badiiy tahlil shakliga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) og'zaki; 2) yozma. Badiiy asar og'zaki shaklda ham tahlil qilinadi. Lekin bunday tahlilga yozma ravishda tayyorgarlik ko'rilsa, samaraliroq bo'ladi. Badiiy tahlil orasida yozma shakl keng yoyilgan. Bu tahlil turi faqat aytilgan vaqt uchungina daxldor bo'lmay, keyinchalik, katta zamoniy oraliqlardan so'ng ham odamlarga ta'sir ko'rsatishi, millat badiiy

	tafakkurini shakllantira olishi, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tishi bilan xarakterlanadi. Badiiy asar tahlilini undan kuzatilgan maqsadga ko'ra: 1) ilmiy (filologik); 2) o'quv (didaktik) singari ikki turga bo'lish mumkin. Filologik (ilmiy) tahlil adabiy asarning mantig'i va estetik xosligini anglashga yo'naltirilgan kuchli hissiy-intellektual faoliyatdir. Ilmiy tahlilda badiiy asardan chiqarilgan xulosalarning adabiyotshunoslik ilmi erishgan darajalarga muvofiq kelishi talab etiladi. Tahlil jarayonida bildirilayotgan har bir fikr ham mantiqiy tushunchalar, ham estetik qonuniyatlar bilan asoslangan bo'lishi lozimdir. Shuningdek, ilmiy tahlilda o'rganilayotgan asarning umummilliy adabiyotdagi o'rni va milliy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri darajasi ko'rsatilishi ko'zda tutilishi kerak. Filologik tahlil ommaboplikdan yuqoriroq turishini va har qanday adabiy hodisaga mutaxassis nazari bilan qaralishini taqozo qiladi. Ilmiy tahlildagi asosiy narsa badiiy asarning badiiyligini, ta'sirchanligini, jozibasini, sehrini ta'minlagan jihatlarni ko'rsata bilishdir.
M6	**Badiiy matn tahlilda shakl va mazmun munosabati** Badiiy matn tahlilida haqida gapirganda, mazmun va shakl birligi hamda ularning o'zaro munosabatlari masalasiga alohida to'xtalish lozim. Negaki, badiiy tahlilga tortilgan har qanday badiiy shakl (asar)dan badiiy mazmun kutilganidek, har qanday mazmun biror ifoda tarzini topishi shartdir. Badiiy asarlar ilmiy tahlil qilinganda mazkur muammo faqat estetik planga qo'yiladi. O'quv tahliliga tortilgan asarlarga tadbiqan esa shakl va mazmun masalasi ham estetik, ham pedagogik poblemadir. Mafkura estetik tafakkurga ham hukmronlik qilgan zamonlarda badiiy asarlardagi mazmun va shakl munosabatiga falsafa ilmidagiday qaraldi. Ya'ni badiiy hodisaning o'ziga xos tabiati hisobga olinmay, unga sof ilmiy fenomenga yondashilganday munosabatda bo'lindi. Shu sabab adabiyotshunoslikda badiiy asarning mazmuni birlamchi bo'lishi, badiiy shakl esa ikkinchi darajali mavqeda bo'lishi kerak degan qarash qaror topdi. San'atda ta'sirchan, original, hech kimnikiga o'xshamagan shakl emas, balki qay tarzda aytilsa-da, mazmun birlamchi ahamiyatga ega deb qarash, badiiy jihatdan nochor bo'lsa-da, ochiqchasiga kommunistik mafkura manfaatlariga xizmat qiladigan, marksistik g'oyalarni ifodalovchi bitiklarning badiiyat namunasi tarzida qabul etilishiga qaratilgan adabiy siyosat edi.

M7	**Badiiy matn tahlilida obyekt va subyekt munosabati** Badiiy asar tahlilida talililchi - sub'ekt bilan tahlil qilinuvchi – ob'ekt, ya'ni badiiy matn o'rtasida to'g'ri munosabat o'matilishi g'oyat muhim ekanligi. Ijrochi tahlilga tortilgan badiiy matnga alohida qiziqish, ehtiros bilan yondashsagina uning jozibasi, yashirin ichki ma'nolarini topishi mumkin ekanligi. Agar sub'ekt ob'ektga loqayd qaraydigan bodsa, undagi ko'zga yaqqol tashlanib turmaydigan jihatlami payqamasligi mumkinligi. Badiiy matn. ya'ni ob'ekt turli vaqtlarda idrok etilganda turlicha ta'sir qilishi. Badiiy asar ko'proq tuyg'u mahsuli bodganligi uchun ham matn hissiy holati qandayligidan kelib chiqib, tahlilchiga turlicha ta'sir qilishi mumkinligi. Shuning uchun ham tahlil jarayonida tahlilchi badiiy ijodning universal qommlariga suyangan holda asarga xos estetik jihatlami ko'rsatishi joizligi. Shimingdek, tahlilchi badiiy matndan tashqari yana bir ob'ekt - o'quvchi ham borligini hisobga olib, fikr-mulohazalarining tushunarliligini ta'minlashi zarurligi.
M8	**Badiiy matn tahlilda dunyoqarash va milliy mansublik** Badiiy asar falsafiy yo'nalishda tahlil qilinganda, yozuvchining dunyoqarashi va e'tiqodi, olamni ko'rish, anglash, tushuntirish hamda tasvirlashda tayanadigan falsafiy asos tekshiriladi. Bu yo'nalishdagi badiiy tahlil matndan uzilgan falsafiy mushohadalardan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Tekshirilayotgan asar matnidan kelib chiqmaydigan har qanday falsafiy-nazariy xulosa amaliy ahamiyat kasb etmaydi. Psixologik yo'nalishda o'rganilayotgan asar muallifi shaxsiyatidagi o'ziga xoslik, adibning asar ustida ishlash usuli, ijodiy jarayon psixologiyasi, shu kechimdagi ruhiy holati va uning tahlillanayotgan asarda qoldirgan nuqsi, muallif ruhiy dunyosining matn saviyasiga ko'rsatgan ta'siri kabi jihatlar o'rganiladi. Tahlilning bu yo'nalishida muallifning tasvir uslubini tayin etgan omillar, shaxsiyatga xos jihatlarning badiiy haqiqatga evrilish yo'sini tekshiriladi. Lingvistik yo'nalishdagi badiiy tahlilda asosiy e'tibor asarning til jihatiga qaratiladi. Bu yo'nalishda asar filologik hodisa sifatida til va tasvir vositalarini qo'llash, tilning tasvir imkoniyatlari doirasida badiiy shakllar yaratish nuqtai nazaridan tekshiriladi. Bunda muallifning faoliyati an'anaviylik va novatorlik pozitsiyasidan baholanadi. So'zning o'z va badiiy ma'nosi, kontekstdagi jozibasi, badiiy matn zamiriga yashirilgan mazmun va bu yashirilganlikning hayotiy-estetik sabablari

	singari jihatlarga e'tibor qaratiladi..
M9	**Matn tahlilida asarning tur xususiyatlarini hisobga olish** Badiiy tahlil muvaffaqiyatli chiqishi uchun tekshirilayotgan asaming tur xususiyatlari hisobga olinishi sharthgi. Lirik asami tahlil qilishda qod keladigan usul romanni tekshirish yoxud dramatik asami tekshirishga mos kelmasligi mumkinligi. Har bir badiiy asar takrorlamnas estetik hodisaligi, ayni vaqtda u o'z turdoshlariga xos umumiy jihatlarga egaligi uchun ham bu talabga rioya qilish zarur ekanligi. Tahlil mobaynida har bir asaming xususiyatidan kelib chiqib, ayni vaqtda, turga xos jihatlar hisobga olinib ish ko'rilgandagina samaraga erishish mumkinligi.
M10	**Badiiy matnni tekshirishdagi ilmiy maktablar** Badiiy matnga tahlilchi o'z maqsadi, falsafiy qarashlar tizimi, estetik tayyorgarlik darajasi, ilmiy va badiiy saviyasi hamda boshqa omillardan kelib chiqqan holda yondashadi. Badiiy tahlilni amalga oshirishda turli millatlar va mintaqalarda turlicha munosabatlar tizimi qaror topgan. Sharq va G'arb mintaqalarida badiiy matnga tamomila turlicha munosabatda bo'lib kelingan. Sharqda, xususan, Turkisonda badiiy asardan, birinchi navbatda, san'at talab etilgan. Badiiy matnning ta'sirli, o'ziga xos, betakror nafis va kutilmagan bo'lishiga e'tibor qaratilgan. G'arbda esa badiiy matndan ko'proq ijtimoiy ma'no qidirilgan, bu hol sotsiologik, funksional tahlil yoki boshqacha aytganda interpretatsiyani kelib chiqargan. Shuning ta'sirida adabiyotshunoslik ilmida har qanday badiiy asar o'z-o'zidan estetik, tarbiyaviy va ijtimoiy-ma'rifiy funksiyalarni birvarakayiga bajaradi deb hisoblab kelingan. Tahlil mobaynida muayyan badiiy asarda ayni shu funksiyalar qaytarzda va qanchalik darajada ado etilishini aniqlashga urinilgan. Bundan tashqari ushu darsni o'zlashtirish jarayonida tahlil tarixi, uning ko'rinishlari, tipologik va qiyosiy tahlil belgilari, funksional tahlilga xos xususiyatlar, sotsiologik talqin va formal tahlil, struktural tahlilga xos jihatlar va matn interpretatsiyasi va hermenevtika kabi masalarga ham e'tibor qaratiladi.
M11	**Matnning ilmiy va o'quv tahlili** Badiiy asar mohiyatini ochishda ilmiy (filologik) tahlil baland rutbada turadi. Filologik (ilmiy) tahlilga xos xususiyatlarini aniqlash uchun bu xil tahlilning maqsadini belgilash zarurdir. Ilmiy tahlilning maqsadi o'rganilayotgan asarning hayotiy va badiiy mantigi hamda estetik jozibasini ochishdan iboratdir. Tahlilning bu turi oldida tekshirilayotgan asarning hakikiy badiiy qimmatini aniqlash, uning millat badiiy hayotidagi asl urnini tayin etish, muayyan asarning millat badiiiy tafakkuriga qo'shgan yangiligini xolis aniqlab berish, uning

	jamiyat a'zolari ijtimoiy ongiga ta'sirini belgilash, asarning milliy estetik tafakkur taraqqiyotidagi o'rni va inson ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyatini ochish kabi vazifalar turadi. Didaktik tahlil ham ilmiy tahlil kabi badiiy matnning sirini kashf etishga, muallifning niyatini anglashga, asar jozibasini ta'minlaydigan jihatlarni aniqlashga qaratilgan bo'lsada, ilmiy tahlildan farqli tomonlari ham br. O'quv tahlili bir qator qirralari bilan filologik tahlildan muayyan darajada farq qilsa-da, unga zid narsa emas. Har qanday didaktik tahlil ilmiy tahlil darajasiga ko'tarilishga intiladi va unga yetganda o'kuv tahlilidan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishilgan bo'ladi. Ayni vaqtda, badiiy asarni didaktik tahlil qilish filologik tahlil etishdan jiddiy farq ham qiladi. Darsda bu jihatlar yanada keng ochib beriladi.
M12	**Lirik asarlarni tahlil qilish yo'llari** Badiiy matn tahlili muvaffaqiyatli chiqishi uchun tekshirilayotgan asarning qaysi adabiy turga mansubligini hisobga olish muhim. Adabiy tur tushunchasining mohiyatida tahlilning kaliti yotadi. Negaki, adabiy tur va janr xususiyatlari badiiy asar tabiatini belgilaydi. Turli janrlardagi adabiy asarlar tekshirilganda, tahlil usullari mutlaqo o'zgarib ketmaydi, albatta, lekin tahlilchining asarga yondashishi, munosabat tarzi o'zgaradi. Har bir badiiy asar takrorlanmas va tamomila o'ziga xos estetik hodisaligi, ayni vaqtda u o'z turdoshlariga xos umumiy jihatlarga egaligi uchun ham tahlilda adabiy turga xos belgilarni hisobga olish zarurdir. Chunki lirik asarni tahlil qilgan usul bilan romanni o'rganish mumkin emas. Shuningdek, hikoyani o'rganishda qo'l kelgan tahlil usuli dramani tekshirishda ish bermay qolishi mumkin va h.k. Har bir adabiy tur tabiatidagi o'zigaxoslik bu turga mansub asarni tahlil etishda undagi asosiy jihatdan kelib chiqishni talab qiladi.Ma'lumki, bizdagi adabiy tur atamasi ruslarda "rod" - jins so'zi bilan beriladi. Lekin har ikki tilda ham bir tushuncha kuzda tutiladi. Badiiy asar qanday maqsadda (kuylash, ko'rsatish yoki o'qish uchun) yaratilishiga va nimani (tuyg'u, voqea yoki harakat) ifodalashiga qarab turlarga bo'linar ekan, tahlil jarayonida ham badiiy matnning maqsadi va ifoda imkoniyati hisobga olib ish ko'rilsa, kutilgan samaraga erishish mumkin bo'ladi.
M13	**Epik asarlar tahlili** Epik asarlar tahlilida bu xil asarlarning ma'nosida ozdir-ko'pdir tafsilot bo'lishini ko'zda tutish lozim. Demak, epik asar tahlilini amalga oshirishda badiiy timsol bilan tafsilotning qanchalik muvofiqligi yoki nomuvofiqligi yoxud aloqasiz tasviri bergan estetik natija qidirilishi lozim bo'ladi. "Alpomish" dostoni tahlil etilayotganda Hakimbekka

	elchi sifatida berilgan biya, undan tug'ilgan yargoq toychoq, Barchindan xabar kelgan kuni shu toyning sagrisi toshib, o'zini qo'yarga joy topolmay qolganligi, Alpomishning ot surab Qultoyga borishi, Ko'ltoyning unga ot bermasligi va boz ustiga kaltaklashi, o'z moliga egalik qilolmagan noshud yig'itning quruq qaytishi va Kaldirg'ochoyim iddaolari singari ko'pgina tafsilotlarga e'tibor qaratilmasa, estetik tahlil yuzaga kelmaydi. Chunki timsolning asl mohiyati ayni shular zamiriga joylangan.
M14	**Dramatik asarlarni tahlil qilish** Aslida dramatik asarlar tahlili ham xuddi epik va lirik turdagi asarlarni tahlil qilishga juda ham o'xshab ketadi. Ammo dramatik turdagi asarlar faqat o'kish uchun emas, balki asosan ko'rsatish, namoyish etish uchun ham yozilganligi sabab teatrga xos xususiyatlar hisobga olinishi, ya'ni yaratilayotgan vaqtida yoki asarning spektaklga aylanishi ko'zda tutilishi joiz. Dramatik asarlar tahlili o'zgacha sinchkovlikni talab etadi. Aslida so'z va teatr san'atlarining omuxtasi bo'lmish dramani o'kish, idrok etish hamda tahlillash uchun muayyan darajada ko'shimcha zo'rikish lozim bo'ladi. Qahramonlar va ularning tuyg'ulari, insoniy sifatlari haqida muallifning xarakteristikasi bo'lmagan sharoitda asar qahramonlari holati, ruhiyati va shaxsiyati borasida fikr yuritish, muayyan xulosalar chiqarish katta aqliy quvvat takozo etadi. Drama asarlari tahlilida asosiy e'tiborni qahramonning sa'viyasini ochishga qaratish lozim. Negaki, har bir dramatik qahramon tabiati yuzasidan ularning o'z so'zlari, hatti-harakatlari orqaligina fikr yuritish mumkin, bu ishda boshqa adabiy turlardagi singari muallif yordam berolmaydi. Dramatik asarlarni to'laqonli tahlil etish uchun teatr san'ati qoidalaridan ham xabardor bo'lish zarur.
M15	**Badiiy matnning belgilar (semiotik) bo'yicha tahlili** Simvol haqida tushuncha, uning lug'aviy va istilohiy ma'nolari. Badiiy adabiyotda simvol-ramz tushunchasining mazmun mohiyati. Ramziy obraz tushunchasi va uning badiiy funksional tuzilishi, Sharq mumtoz va hozirgi zamon o'zbek she'riyatida ramziy obrazlar. Xalq og'zaki ijodida ramziy obrazlar dunyosi.
M16	**Badiiy matnning struktural tahlili** Badiiy asarga yangicha yondashish yo'llari. Qadimgi sharq ilmida matn va badiiy matnga munosabat xillari. Strukturalizm yo'nalishi va struktural tahlil usuli. Struktural tahlilning paydo bo'lishi va taraqqiyoti.

	Adabiyotshunoslikda struktural tahlilning samaradorligi. O'zbek adabiyotshunosligida struktural tahlilning paydo bo'lishi.
M17	**Badiiy matnning biografik tahlili** Badiiy asar va matnni tahlil etish yo'llari taraqqiyoti. Qadimgi sharq adabiyotida badiiy asar va muallif masalasi. Badiiy asar va ijodkor shaxsiyati muammosi. Badiiy ijod va ijodkor laboratoriyasi masalasi. Badiiy asarni biografik tahlil etish usuli. Ijod va ijodkor olami masalasi. Badiiy biografik asarlar tahlili. Biografik tahlilning tayanch omillari. Shoir shaxsiyati, muallif. Maishiy hayot. Turmush-tarz. Falsafiy qarash. Intim hayot.
M18	**Badiiy matnning ruhiy(psixoanaliz) tahlili** Badiiy asarni ruhiy tahlil etish usulining paydo bo'lishi va taraqqiyoti. G'arb adabiyotshunosligida ruhiy tahlil va psixoanaliz masalasi. Asarni ruhiy tahlil etish tarixi va uning salmoqdorligi. Adabiyotshunoslikda ruhiy tahlil muammosi. O'zbek adabiyotshunosligida ruhiy tahlil taraqqiyoti. H.Umurovning asarni ruhiy tahlil etish haqidagi tadqiqotlari. Asarning ruhiy tahlil etish omillari, tamoyillari va ruhiy tahlil formalari. Asarni ruhiy tahliliga oid asosiy epizodlar talqini. Asarda tush epizodi, badiiy nutq ruhiyati, xarakter ruhiyati.
M19	**Folklor asarlarini tekshirish metodlari** Xalq og'zaki ijodi namunalarini tahlil etish usullari. Turk adabiyotshunosligida folklor asarlarini tekshirish masalasi. Xalq og'zaki ijodi namunalari tahlil etish tarixi va uning jarayonlari. Adabiyotshunoslikda xalq og'zaki ijodi namunalarini tahlil muammosi. Turk adabiyotshunosligida folklor matnlarini tahlil taraqqiyoti. Olimlarning xalq og'zaki ijodi namunalari tahlil etish haqidagi tadqiqotlari. Xalq og'zaki ijodi namunalari tahlil etishda o'ziga xos simvollarning ahmiyati va tahlil jarayonida ularndan foydalanish masalasi. Folklor asarlarini tahlil etish omillari, tamoyillari va tahlil formalari.
M20	**Matn tahlilida zamonaviy yondashuvlarning o'rni** Matn tahlili jarayonida olib boriladigan amaliy ishlar, matn tahlililiga oid qarashlar, shu bilan birga pedagogik texnologiyalardan misol tariqasida immanent va kontekst yondashuvlariga oid jahon olimlarining fikrlari, mazkur yondashuvlarning tarixiga nazar tashlangan. Zamonaviy ta'limda yangilik sanalgan immanent

	yondashuvi va kontekst yondashuvlari kabi masalalar keltiriladi.
III. Mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: amaliy (A) **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**	
A1	Badiiy tahlilning yo'nalishlari va tamoyillari
A2	Turk xalq dostonlarini tahlil etish.
A3	Turk xalq qo'shiqlarini tahlil qilish
A4	Turk xalq ertaklarini tahlil qilish.
A5	Yunus Emroning "Çıktım Erik Dahna" she'ri tahlili
A6	Rashod Nuri Guntekinning "Choliqushi" asari tahlili
A7	Nejip Fozilning "Sakarya turkusu" asari sharhi, obrazlar va mavzular olami
A8	Orhan Pamukning "Benim Adım Kırmızı" asari matni tahlili
A9	Abdurahmon Karakochning "Mihriban" she'ri matni tahlili
A10	Jemal Safining "Tek Hece" she'ri matni tahlili
A11	Sezai Karakochning "Mona Rosa" asari matni tahlili
A12	Ismet O'zelning "Erbain" she'ri matni tahlili
A13	Yashar Kemal romanlari matn tahlili
A14	Mehmet akif Ersoyning "Safahat" asari va o'zbekcha matni tahlili
A15	Jamol Surayyoning "Göçebe" she'riy asari matni tahlili
A16	Nurulloh Genchning "Yag'mur" asari matni tahlili
A17	Turk tilidagi ilmiy asarlar tahlili
A18	Turkcha rasmiy uslubdagi matnlar tahlili

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Matn tahlili" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	**Mustaqil ta'lim mavzulari** **Ish turi**
1	Amaliy va seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish
2	Adabiy-nazariy adabiyotlar bilan ishlash
3	Ilmiy adabiyotlar matni tahlili
4	Publitsistik materiallar bilan ishlash
5	Umar Sayfiddin hikoyalari matni tahlili
6	Mumtoz asarlar tahliliga doir kitoblarni o'qish

7	Matn tahliliga oid xorijiy va turk olimlari maqolalari bilan tanishish
8	İsmail Chetishlining "Metin Tahlillerine Giriş" kitobi tahlili
9	Erman Artunning "Metn tehlili" kitobini tahlil qilish
10	Oshiq adabiyoti matnlari tahlili
11	Mehmet Kaplanning hikoyalari matni tahlili
12	Sherif Aktashning matn tahliliga doir maqolalari tahlili
13	Nurullah Chetinning she'r va hikoyalarga oid tahlillari
14	Ismet Emrening romanlar tahliliga oid qarashlari
15	Mine Mingening matn tahlili va tanqidiga oid qarashlari
16	Yekta Sarachning devon adabiyoti tahlillari
17	Jemal Kurnazning usmonli adabiyoti asarlari tahliliga doir maqolalari
18	Mustafa Jo'shkunning klassik turk she'riyatiga oid adabiy-tanqidiy maqolalari tahlili
19	"Filoloji söylem" jurnalidagi matn tahlillariga oid maqolalar bilan tanishish
20	"Hece" jurnalidagi matn tahlillariga oid maqolalar bilan tanishish
21	"Turkologık tadqıqotlar" jurnalidagi matn tahlillariga oid maqolalar bilan tanishish
22	"Akademık dıl ve edebıyat" jurnalidagi matn tahlillariga oid maqolalar bilan tanishish
23	"Bilge" jurnalidagi matn tahlillariga oid maqolalar bilan tanishish
24	"Folkor edebiyat" jurnalidagi matn tahlillariga oid maqolalar bilan tanishish
25	"Milliy folklor" jurnalidagi matn tahlillariga oid maqolalar bilan tanishish
26	"Rumeli dil ve edebiyat araştırmaları" jurnalidagi matn tahlillariga oid maqolalar bilan tanishish
27	O'g'uz Atay asarlarining modern tahlili
28	Sabahattin Ali hikoyalari tahlili
29	A.B.Erjilasunning adabiy-tanqidiy qarashlari tahlili
30	Rashod Nuri Guntekin romanlari matni tahlili
31	Rashod Nuri Guntekin hikoyalari tahlili
32	Mehmet Akif Ersoy ijodida folklor an'analari tahlili
33	Orhan Pamuk romanlari tahlili
34	Atilla Ilhan ijodida tarixiylik tamoyili tahlili
35	Yashar Kemal she'riyatida xalqchillik tamoyillari tahlili

"Matn tahlili" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, maruza mashg'ulotlari davomida o'zlashtirilgan badiiy matn tahliliga oid nazariy va tamal bilimlarni amaliyotda mustahkamlash va mustaqil ishlarni bajarish jarayonida bevosita turk adabiyiting turli yo'nalishlaridagi asarlarini tahlil qilish orqali bilimlarini chuqurlashtirib borishlari, e'tiborga olingan. Masalan, turkiy xalqlar adabiyotining ilk namunalari sanalgan xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, turli adabiy jarayonlar natijasida shaklalngan turli yo'nalishlardai asarlar tahlil ostiga olingan va bu bo'yicha bir qator darslik va ilmiy mongrafiyalar bilan tanishish tavsiya qilingan. Talabalar ushbu mavzularda olib borilgan keyingi tadqiqotlar bilan tanishish natijasida keng ma'lumotlar bazasiga ega bo'ladilar hamda ularda matnlarni tahlil qila olish ko'nikmasiga shakllanadi. Shu mazmunda MTda nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • badiiy matn tahlilning ilmiy-nazariy asoslari, tahlil qilish metodikasi, tahlil turlari, tamoyillari va yo'nalishini tez va bexato tayin etish; yozuvchining o'ziga xosligini ta'minlagan omillami payqash; asardagi tasvir o'zgachaligini ta'minlagan sabahlami ko'ra bilish; matn yuzasidan fikrini yozma va og'zaki ifodalay bilish; asaming til xususiyatlariga xos betakroriylikni ham bilish; • asaming badiiy qimniatini baholay olish: turk adabiyoti namunalarini tahlil etish; badiiy asarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra tahlil qila olishni bilish bo'yicha malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi; • mazkur o'quv predmetining nazariy asoslarini, badiiy asarni tahlil qilish va baholash mezonlarini, Blum taksonomiyusi asosida fanning o'qilisli bosqichlarini belgilay olishi, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirishning shakl va usullarini, dars jarayoniga qo'shimcha adabiyollarni, yangi axborot texnologiyalarini qo'llay bilish kabi ***bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • "Matn tahlili" fanining obyekti va predmeti, uning ta'lim tizimida tutgan o'rni hamda faning taraqqiyot bosqichlari, fanni o'qitisb metodlari va usullari, ushbu fan bo'yicha yozilgan darslik va qo'llanmalarning xususiyatlarini tayin eta olish ***malakalarga ega bo'lishlari kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar;

	• interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar; • video materiallar; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil. • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. İsmail Çetişli. Metin Tahlillerine Giriş 1 Şiir, Akçağ yayinlari, 2004 yil, 286 2. İsmail Çetişli. Metin Tahlillerine Giriş 2 (Hikaye, Roman, Tiyatro), Akçağ yayinlari, 2004 yil, 360 3. Abdullah DAĞLI, Birgül ASLANOĞLU, Mustafa Asım EKMEKÇİOĞLU, Tuba CEYLAN, Zekeriya KILIÇ. Metin Tahlilleri I (Ders Kitabı), DEVLET KİTAPLARI. 2024 4. Q.Yo'ldosh. M. Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari "Kamalak". T. 2016. 5. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik – T.: "Fan", 1991-1992 6. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T., O'qituvchi. 2005 yil. 7. Х.Умуров. Адабиёт назарияси. –Т.: «Шарқ», 2002. **Qo'shimcha adabiyotlar** 8. Mengi, Mine. Eski Türk Edebiyatı Tarihi. Akçağ Yayınları. Ankara: 2019. 9. Banarlı, Nihad Sami. Resimli Türk Edebiyatı Tarihi 1-2. Milli Eğitim Basımevi, İstanbul: 1971. 10. Kabaklı, Ahmet. Türk Edebiyatı. Türk Edebiyatı Yay., İstanbul: 1971. 11. Güzel, Abdurrahman, Torun, Ali. Türk Halk Edebiyatı El Kitabı. Akçağ Yayınları. Ankara: 2003. 12. Kocatürk, Mahir Vasfı. Türk Edebiyatı Tarihi. Türk Edebiyatı Yayınları. Ankara: 1971. 13. Alangu Tahir "Türk Folkloru El Kitabı". Yapı Kredi Yay. İstanbul: 1983. 14. Фрейд З. Психология безсознательного. –М.: Просвещение.-1989. **Elektron ta'lim resurslari**

	1. www.ziyonet.uz 2. http://www.nihal-atsiz.com 3. https://www.turkedebiyati.org/ 4. https://www.turkedebiyati.org/yazarlar-ve-eserleri-sozlugu/www.drmosad.com 5. https://www.artfulliving.com.tr/edebiyat/edebiyatimizin-unutulmaz-20-ismi-i-8140 6. https://www.turkedebiyati.org/turk-edebiyati-tarihi/ 7. www.edu.uz
7.	Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024-yil 24-avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: **R.Ruzmanova** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, " O'zbek tilshunosligi" kafedrasi dotsenti.
9.	**Taqrizchilar:** **Z.Boynazarov** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, " O'zbek tilshunosligi" kafedrasi dotsenti. (tel.:+998995829381) **Bayram BILIR** – Samarqand davlat chet tillar instituti sharq tillari fakulteti Yaqin sharq tillari kafedrasi dotsenti, PhD. (tel.:+998931961627)
	Tuzuvchi: R.Shokirov – SamDU, Turkologiya ilmiy tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi (tel: +99899 596 35 69).

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Nosirov A.

O'zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri — **dots. Muhammadiyev Sh.S.**

Filologiya fakulteti dekani — **prof. Eltazarov J.D.**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor — **prof. Soleyev A.S.**

Sharof Rashidov nomidagi samarqand davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Matn tahlili" fani fan dasturiga

TAQRIZ

Mazkur "Matn tahlili" faning dasturi yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, undagi mazmunni amaliy o'zlashtirish Filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari zimmasiga tushadi, chunki aynan shu kabi fanlar orqali o'quv maskanlarida insonning jamiyat va atrofimizdagi olam o'zaro murakkab aloqada bo'lgan hozirgi sharoitda ishlash uchun yangi g'oyalarni qabul qila oladigan, noodatiy vaziyatlarda vazifalar qo'yishga va ularni hal etishga qodir bo'lgan mutaxassislar shakllantiriladi.

Ushbu fan dasturida fanning mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak turkologlarning kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy hamda amaliy tushunchalarni qamrab olgan.

"Matn tahlili" fani yuzasidan talabalarning zaruriy bilim va ko'nikmalar olishiga mo'ljallangan mavzular qamrovi, mazmuni jihatdan ushbu fan bo'yicha talab qilinadigan malaka talablarini to'la qamrab oladi. Mavzular mazmunan va xronologik jihatdan to'g'ri tanlangan bo'lib, talabalarning ushbu fan yuzasidan to'liq bilim va ko'nikmalarni egallashiga mo'ljallangan.

Ushbularni hisobga olgan holda, ushbu fan mazmuni va tuzilishi jihatdan fan dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi. deb hisoblayman va filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Matn tahlili" fani fan dasturini ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

SamDCHTI Yaqin Sharq tillari kafedrasi dotsenti, PhD **Bilir B.**

NING IMZOSINI TASDIQLAYMAN

Sharof Rashidov nomidagi samarqand davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Matn tahlili" fan dasturiga

TAQRIZ

Mazkur fan dasturi Filologiya fakultetining filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Matn tahlili" fani bo'yicha tuzilgan bo'lib, unda fanning mazmunidan kelib chiqqan holda ma'ruza, amaliy mashg'ulot va seminar mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar, fanni o'qitish natijalari (shakllantiriladigan kompetensiyalar), ta'lim texnologiyalari va metodlari, kreditni olish uchun talablar, baholash mezonlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Matn va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va shu asosda talabalarning badiiy matndagi lisoniy-poetik xususiyatlarni idrok etish malakalarini shakllantirish vazifasi fanning dolzarbligini ko'rsatadi. Zero, matnni to'gri tahlil va talqin qila olish malakasi insonning umummadaniy saviyasi, ma'naviy-ma'rifiy balog'ati, dunyoni anglash salohiyati, hissiy-estetik idrokining taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi.

"Matn tahlili" fani yuzasidan talabalarning zaruriy bilim va ko'nikmalar olishiga mo'ljallangan mavzular qamrovi, mazmuni jihatdan ushbu fan bo'yicha talab qilinadigan malaka talablarini to'la qamrab oladi. Mavzular mazmunan va xronologik jihatdan to'g'ri tanlangan bo'lib, talabalarning ushbu fan yuzasidan to'liq bilim va ko'nikmalarni egallashiga mo'ljallangan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu fan mazmuni va tuzilishi jihatdan fan dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Matn tahlili" fan dasturini ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

SamDU Turkologiya ilmiy tadqiqot instituti direktor o'rinbosari, PhD **Baynazarov Z.**

TURKOLOGIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI